O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
DEHQONOBOD TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Manzil: Dehqonobod tumani.Qorashina shaharchasi M.Ulug‘bek ko‘chasi indeks: 180400 tel-faks: (75) 612-13-31

2022 - yil 30 - iyun 244-4-57-Q/22 Dehqonobod tuman hokimligi

Dehqonobod tumanida dam olish kunlarida yarmarka tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi 253-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalariga muvofiq, tuman hududida dam olish kunlari yarmarkalarni tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni tartibga solish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Dehqonobod tumanidagi fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yarmarkalar o‘tkazish bo‘yicha bergan taqdimnomalarini inobatga olib, “Dehqonobod dehqon (oziq-ovqat) bozori” MChJ hududida har shanba va yakshanba kunlari soat 07-00 dan 17-00 gacha yarmarka tashkil etilishi belgilansin.

2. Yarmarkalarda qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini va ularni qayta ishlashdan olingan tovarlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo‘lgan nooziq-ovqat iste’mol tovarlarini sotishga ruxsat berilishi;

- yarmarka hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishi;

- yarmarkalar uchun ajratilgan savdo o‘rinlarining toza va tartibli saqlanishiga sotuvchilar ma’sul ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Yarmarkalarda mahsulotlarni sotish quyidagi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin:

- tovarga oid hujjatlar (tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berligan sotilayotgan mahsulot jismoniy shaxs tomonidan unga yoki uning oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkada yetishtirilganligini tasdiqlovchi, belgilangan shakldagi hujjat (ma’lumotnoma);

- sotuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar.

4. Dehqonobod dehqon (oziq-ovqat) bozori MChJ (A.Jebayev):

- yarmarkalar tashkil etish uchun bozorning aholi uchun qulay bo‘lgan qismidan, bozorning umumiy savdo maydonining 5 foizidan kam bo‘lmagan maxsus joylar ajratilishini;

- yarmarkalar uchun ajratilgan hududdan savdo o‘rinlarining bepul berilishini;

- yarmarkalar o‘tkazilishini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritishni ta’minlasin va bozorning kirish joylariga e’lonlar joylashtirishni tashkil etilishini inobatga olsin.

5. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Nomozov) har yakshanba kunlari yarmarka o‘tkazilayotganligini hamda yarmarka hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishini va yarmarkada tovarga oid hujjatlar mavjudligini doimiy nazoratqilsin.

6. Dehqonobod tuman sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bo‘limi (B.Jo‘rayev) yarmarkada sotilayotgan mahsulotlar-ning turlariga qarab joylashtirish va ular sifatining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga to‘g‘ri kelishini doimiy nazoratga olsin.

7. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (G‘.Haydarov) yarmarka o‘tkaziladigan kunda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror “Dehqonobod ovozi” gazetasida (E.Maxsumov) e’lon qilinsin hamda hokimlikning dehqonobod.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi bilan Dehqonobod tuman hokimining 2021-yil 26-fevral kunidagi “Dehqonobod tumanida dam olish kunlarida yarmarkalarni tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi HQ-162/02-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirsin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Usmonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Aliqulov.Z.X**